

Komplayens xizmati tomonidan 2022-yilning I yarim yilligi
davomida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda – Jamiyat*)ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 9 tasi xodimlar bilan to‘ldirilgan.

Xodimlar tomonidan “onlayn” malaka oshirish kurslariga qatnashib, bilim salohiyati oshirilishi natijasida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (*International Anti-Corruption Academy*)ning “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” yo‘nalishida **9 ta** va “Aktivlarni deklaratsiyalash – korrupsiyani aniqlash indikatori” yo‘nalishida **8 ta**, “Xaridlar sohasida korrupsiya va firibgarlikni oldini olish” yo‘nalishida **2 ta** sertifikatlari olindi. Bundan tashqari, Moliya vazirligining “Davlat xaridlarini amalga oshirish” yo‘nalishida **7 ta** hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining sohaga oid **2 ta** sertifikatlari olindi.

ISO 37001:2016 xalqaro standartining muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan **Yo‘l xaritasi** tasdiqlanib, uning ijrosi bo‘yicha **5 ta** ichki idoraviy hujjat ishlab chiqildi.

Komplayens xizmati tomonidan jami **520 ta** ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan 20 ta takliflar ishlab chiqilib, 9 tasi amaliyotga joriy etildi.

Joriy yilning 6 oyi davomida Komplayens xizmati tomonidan 32 ta topshiriqlarning ijrosi ta’minlandi.

Xaridlar sohasida “Potensial tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash bo‘yicha tashkil etilgan komissiya” (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **16 ta** tender hujjatlari bo‘yicha 63 ta tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko‘rib chiqilib, **1 ta** holatda manfaatlar to‘qnashuvi oldi olindi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limlari joriy etildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e’lon qilinishi belgilangan ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallar hamda Komplayens xizmatining mas’ul xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirildi.

O‘tgan davr mobaynida jamiyat xodimlari bilan **12 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, 10 ta uchrashuv va 1 ta so‘rovnomalar o‘tkazilib, 1 ta taqdimnoma muhokama etildi.

Fuqaro murojaatlari va topshiriqlarga asosan jami **11 ta** o‘rganish hamda xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, 4 tasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Xususan, 1 nafar rahbar xodim ma’muriy va 4 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi.